



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR O‘RTASIDA GIJJA KASALLIKLARINI TARQALGANLIGINI O‘RGANISH NATIJALARI
Yusupova O.B., Bekturdieva M.O.

Urganch davlat tibbiyot instituti

Dolzarbli. Bugungi kunda parazitlar kasalliklarining tarqalishi butun insoniyat uchun dolzarb muammodir. Parazitlar keltirib chiqaradigan kasalliklarning jamiyat salomatligi va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sirini sil, bezgak va OIV/OITS kabi kasalliklarning ta’siri bilan solishtirish mumkin. SHu bilan birga, JSST ekspertlarining fikriga ko‘ra, gelmintozlar ma’lum darajada "unutilgan kasalliklar" ga aylangan - butun dunyoda ularning tibbiy va ijtimoiy ahamiyati yetarlicha baholanmagan. Hatto endemik mamlakatlarda ham sog‘liqni saqlash organlari va aholi tomonidan ularga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi.

Gijja kasalliklari bilan kasallanish Maktabgacha ta’lim muassasalarida va maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida ko‘p uchrashi va klinik belgilarning yaqqol namoyon bo‘lmasligi, o‘ta yuquvchan xususiyati va qayta kasallanish holatlarining ko‘p uchrashi va kasallikda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sezilarli nevrologik va fiziologik o‘zgarishlar to‘g‘risida aholining bilim darajasini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Ushgan va uyushmagan maktabgacha ta’lim muassasalari bolalari o‘rtasida gelmintozlarni tarqalganligini o‘rganish.

Olingan natijalar. Xonqa tumanidagi 5 - son MTM tarbiyalanuvchilarining 215 nafari orasidan 11 nafar bola ya’ni 5% i, shuningdek, “yangicha mahallabay” tizimida ishni tashkil etish bo‘yicha Qoraqosh qishlog‘i Mustaqillik mahallasidan 27 nafar jami 38 nafar bolalar olindi. Olingan ikkala guruh bolalarida ham anal teshigi atrofidan qirma usulida laboratoriya analizi olinib bolalar o‘rtasida enterabioz va gimenolepidoz tarqalganligi o‘rganildi. Tekshirishlar maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘yin maydonchalaridan tuproq, oqava suv, ichimlik suvi, meva-sabzavotlar hamda gilam va yumshoq o‘yinchoqlardan surtma namunalari paxta tamponlar yordamida 20% li glitserin eritmasiga bo‘ktirilgan holda (gijja tuxumlari tushib ketishini oldini olish maqsadida) olinib (jami- 53 ta), tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limining parazitologiya tahlilgohida tekshirildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra maktabgacha yoshdagi uyushgan bolalar jamoasida birinchi marotaba enterabiozga tekshirilganda invaziyalanganlar 15% va undan yuqori ko‘rsatkichda aniqlanib, ushbu jamoada bolalar va butun jamoadagilar bilan 100% davolanish (antigelmint preparati qo‘llanilishi) va sog‘lomlashtirish ishlari olib borildi. 5-son MTM jamoasidagi sog‘lomlashtirish samaradorligi qayta laboratoriya tahlili o‘tkazilib o‘rganilganda bolalar o‘rtasida kasallikning uchramaganligi aniqlandi.

Uyushmagan bolalar o‘rtasida gelmintozlarni o‘rganish ishlari tuman Qoraqosh qishlog‘i Mustaqillik mahallasida yashovchi 27 nafar bolalar hududdagi 50-son Oilaviy poliklinikasi tibbiy xodimlari tomonidan gelmintozlarga laboratoriya usulida tekshirilganida 8 nafar bolada gijja tuxumlari borligi aniqlandi. Gelmintoz kasalligi aniqlangan bolalar va ularning oila a’zolarini Vermoks 100 mg antigelmint preparatlari bilan davolash ishlari olib borildi. SHuningdek, xonadonlarda parazitlar kasalliklar profilaktikasi, uning yuqish yo‘llari va klinik belgilari to‘g‘risida tushintirish ishlari o‘tkazildi.

Uyushmagan bolalar jamoasidan gijja tuxumlari aniqlangan 8 nafar bolalar organizmida gelmintozlarni kelib chiqishi sabablarini o‘rganish maqsadida ularning ota-onalari o‘rtasida so‘rovnomadan o‘tkazish ishlari olib borildi. Ota -onalar to‘ldirgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 8 nafar boladan 2 tasi kesak yeyishini, 5 ta bola doimiy ravishda barmoqlarini og‘ziga solib tirnoqlarini tishlab yurishini va 2 ta bola uy hayvonlari ya’ni mushuk va it bilan ko‘proq vaqtini o‘tkazishini bildirganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, kasallik ko‘proq oilada sanitariya-gigiyena qoidalari va sog‘lom turmush tarziga amal qilinmaydigan hollarda ko‘proq uchraydi.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Ushbu kasallik aniqlanib, antigelmint preparatlari bilan davolash ishlari o‘tkazilgan 8 nafar bolalar o‘rtasida 21 kundan keyin qayta tekshiruv ishlari o‘tkazilganida faqat 1 nafar bolada ostritsa tuxumlari borligi aniqlandi.

Xulosa o‘rnida aytsak, bolalarni sog‘lom bo‘lishida oilada ota-onalar tomonidan bolalar ongiga sanitariya -gigiyena va sog‘lom turmush tarzi qoidalarini singdirib borishni ular o‘rtasida kasalliklar, ayniqsa gijja kasalliklarini oldini olishda hamda yosh organizmni sog‘lom, tashqi har qanday ta’sirlarga beriluvchanligini oldini olishda ahamiyati juda kattadir.

